

# **OLIY TA'LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA FRANSUZ TILI FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI**

## **1. Test variantining qo'llanish maqsadi**

Fransuz tili fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliv ta'limga muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga davlat ta'limga standartlari hamda chet tili (ingлиз, немис, француз тили) faniga oid umumta'limga o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

## **2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliv ta'limga muassasalariga bakalavriatiga kirish sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-ton qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'limga muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida” 2018-yil 3-apreldagi 261-ton qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliv ta'limga muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi” Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'limga-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-ton qarori;
- Fransuz tili faniga oid amaldagi davlat ta'limga standarti va o'quv dasturlari.

## **3. Fransuz tili fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi**

Fransuz tili fanidan **mutaxassislik** fani sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrashi va ta'limga keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi ta'limga muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

## **4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi**

Kodi	<b>Fan mazmuni tarkibi</b>
	<b>1. Grammatika</b>
1.1	Otlarda son va rod. Artikl va uning turlari: aniq, noaniq, qism bildiruvchi va tutash artikllar. Artikllarning tushib qolishi. Predloglar.
1.2	Sifat: egalik va ko'rsatish sifatlari. Sifat va ravishning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari.
1.3	Olmosh: egalik va ko'rsatish olmoshlari. Urg'uli va urg'usiz kishilik olmoshlari. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi o'rnida ishlatiladigan olmoshlari. Nisbiy olmoshlari. "En" va "Y" olmoshlari.

1.4	Fe'l: uning aktiv va passiv hamda shaxssiz shakllari (infinitif, participe, géronatif). “Indicatif” mayli zamonlari (Présent, Futur simple, Passé composé, Futur proche va Passé récent, Imparfait, Plus-que-parfait, Futur dans le passé). “Impératif” mayli. Conditionnel mayli: conditionnel présent zamoni.
1.5	Qo'shma gaplarda zamonlar moslashuvi. “Si” bog'lovchisi yordamida bog'langan shart ergash gaplarda zamonlar moslashuvi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.
1.6	So'roq (question sur le sujet; question sur le COI; so'roq sifat va olmoshlari) va inkor gaplar.
<b>2. Leksika</b>	
2.1	O'rganilgan mavzular bilan bog'liq leksik birliklar, so'z yasash elementlari, leksik birliklarning ko'p ma'noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv; sinonim va antonimlar; turg'un birikmalar.
<b>3. O'qish</b>	
3.1	Gazeta va jurnallardan olingen xabarlar, e'lonlar; sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar; internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingen faktlarga asoslangan matnlar; qisqa rasmiy hujjatlar; badiiy asarlardan olingen parchalar; asbob-uskuna va qurilmalarni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar.

## 5. Fransuz tili faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- til birliklari (qo'shimcha, so'z va gaplar)ning leksik-grammatik xususiyatlarini bilish va tushunish;</li> <li>- grammatikaga oid asosiy qoida, tushuncha va atamalarni bilish va tushunish;</li> <li>- grammatik qoidalari o'rtaqidagi bog'liqlikni tushungan holda ularni gapda to'g'ri qo'llash.</li> </ul>
2.	yuqori kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- gap tarkibida ma'nosini taxmin qila olish mumkin bo'lgan yangi so'zlarni to'g'ri qo'llay olish;</li> <li>- so'z turkumlarining grammatik xususiyatlarini tahlil qila olish;</li> <li>- matn mazmunini va uning asosiy g'oyasini tushungan holda ma'lumotlar o'rtaqidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni, voqeа va hodisa sabablarini tahlil qilish;</li> <li>- rasmida tasvirlangan voqeа-hodisaning gap mazmuni bilan bog'liqligini tahlil qilish;</li> <li>- tahlil jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish.</li> </ul>

## 6. Fransuz tili fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Fransuz tili faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari, chet tili (ingliz, nemis, fransuz tillari) faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab qo'yilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida olinadi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi
Fransuz tili	Nutqiy kompetensiya	O'qish	Gazeta va jurnallardan olingen xabar va e'londlarni to'liq tushuna olish.
			Sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matndagi tegishli ma'lumotlarni topish hamda qisqa rasmiy hujjat yoki badiiy asardan olingen parchadagi asosiy fikrni tushuna olish.
			Internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingen faktlarga asoslangan matndagi fikrlarni tushuna olish.
			Asbob-uskuna va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha yozma yo'riqnomalarni tushunish.
	Lingvistik kompetensiya	Grammatik kompetensiya	Otning grammatik kategoriyalari (mujskoy va jenskiy rodlar, birlik va ko'plik sonlar)ni; artikllar (aniq, noaniq, tutash va qism bildiruvchi) va ularning ishlatilishini, ot oldida artiklning tushib qolish holatlarini bilish; predloglar, iboralar va birikmalar tarkibiga kiradigan predloglarni, bog'lovchi so'z va birikmalarni bilish.
			Egalik, ko'rsatish, so'roq sifatlari va ularning ishlatilishini; sifatlarning rod va son kategoriyalari hamda ularning otlar bilan moslashuvini bilish, sifat va ravish darajalari, ularning yasalishi va qo'llanilishini bilish.
			Kishilik, egalik, ko'rsatish, so'roq, nisbiy, guman va urg'uli olmoshlarni bilish.
			So'roq gap: ohang yordamida, so'roq so'zlar yordamida, oddiy va murakkab inversiya orqali so'roq gaplar yasalishini bilish.
			Fe'l zamon (Présent, Futur simple, Passé composé, Futur proche, Passé récent, Imparfait, Plus-que-parfait, Futur dans le passé) va mayllarini (Indicatif, Impératif, Conditionne) bilish.
			Fe'llarning aktiv, passiv va shaxssiz formalari (Infinitif, Participe, Gérondif) ni bilish va tushunish.
			Qo'shma gaplarda zamonalr moslashuvini bilish.
			Darak, buyruq va so'roq gaplarni o'zlashtirma gapga aylantira olish.
			Gap tarkibida yo'l qo'yilgan grammatik xatolikni aniqlay olish.
	Leksik kompetensiya		So'z yasalishi va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar haqida tushunchaga ega bo'lish, keng tarqalgan, kundalik va kasbiy vaziyatlarda ishlatiladigan so'z va so'z birikmalarini bilish.
			Tili o'rganilayotgan mamlakatga xos bo'lgan replika-klishelarni qo'llashni bilish, ko'p ma'nolilik, sinonimlar va antonimlar, kasb-hunarga oid turg'un birikmalarni bilish.
			Rasm yoki chizma yordamida ifodalangan fikrni tushunish; o'z sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so'zlarni tanish.

**\*Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.